

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN AVARIYA VA  
TOG‘ - QUTQARUV ISHLARI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI  
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN AVARIYA VA TOG‘ - QUTQARUV ISHLARI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida avariya va tog‘ - qutqaruv ishlari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me’yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Avariya va tog‘ - qutqaruv ishlari**

1. Avariya – qutqaruv ishlari;
2. Tog‘ qutqaruv tayyorgarligi
3. Harbiy topografiya;
4. Yong‘in saf tayyorgarligi;

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Avariya – qutqaruv ishlari	Avariya – qutqaruv ishlarining turlari, favqulodda vaziyatlarga kuch va vositalarni tayyorlash hamda ulardan foydalanish. O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining tuzilishi. Avariya – qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni tashkillashtirish va o‘tkazish asoslari. Ekstremal holatlarda qutqaruvchilarning yashab qolish asoslari. Avariya – qutqaruv jihozlaridan foydalangan holda avariya - qutqaruv ishlarini amalga oshirish. Avariya – qutqaruv ishlarini o‘tkazish vaqtida qo‘llaniladigan texnik vositalar.	15 ta
2	Tog‘ qutqaruv tayyorgarligi	Tog‘li hududlarda harakatlanish usullari. O‘rta Osiyo tog‘li hududlari. O‘zbekiston tog‘li hududlari. Tog‘ qutqaruv anjomlari. Tog‘li hududlarda harakatlanishning o‘qitish metodikasi	10 ta
3	Harbiy topografiya	Joyda haritasiz oriyentirlanish. Joyda harita bo‘yicha oriyentirlash. Topografik haritalar.	10 ta
4	Yong‘in saf tayyorgarligi	Yong‘in o‘chiruvchilar va bo‘linmalarining yong‘in saf tayyorgarligi. Kuch va vositalarning yoyilishi bilan bog‘liq me‘yorlarni bajarish tartibi. Yong‘in o‘chirish amaliy sporti.	5 ta

#### V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %

2.	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

### **VI Baholash qamrovi**

Biologiya fani o'qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan jami 40 ta test topshirig'i taqdim etiladi va umumiy test topshirig'ini bajarish uchun ajratilgan vaqt 80 daqiqa etib belgilanadi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan (Y1)*, *moslashtirishni talab qiladigan (Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan..

### **VII. Imtihon tartibi**

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

### **VIII. Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. B.B.Berdiyev. Avariya – qutqaruv ishlari. Darslik-O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi. Toshkent-2024.

2. U.N.Ikramo. Tog' tayyorgarligi o'quv qo'llanma. 2005-y. G'.Gulom nashriyoti. 2005-y.

3. R.S.Qulmatov, Sh.Mirzayev, Ch.Xujanov Harbiy topografiya o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi. Toshkent-2022.

4. J.B.Yarbekov, R.Qulmatov, Sh.Mirzayev, Ch.Xujanov, Yong'in saf tayyorgarligi darslik. O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi. Toshkent-2025.

*\*Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish

*jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*